

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TUSHUNCHASINING MA'ZMUN- MOXIYATI VA UNING ILMIY QARASHLARI

Azamov Bahodir Nazirovich

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistraturasi tinglovchisi,
podpolkovnik*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlash tushunchasining ma'zmun-moxiyati va uning ilmiy qarashlari yoritilgan. Shuningdek, bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar hamda olimlarni qarashlari va ular tomonidan ilmiy tahlil qilingan fikr va mulohazalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Xavfsizlik, milliy xavfsizlik, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, huquqiy tuzilma, ma'zmun- moxiyati, ilmiy jixati.*

Аннотация: *В данной статье раскрыто содержание понятия общественной безопасности и ее научные взгляды. Также приведены научные исследования, проведенные по этому поводу и мнения ученых и их научный анализ мнений и комментариев.*

Ключевые слова: *Безопасность, национальная безопасность, общественная безопасность, общественный порядок, правовая структура, содержание, научный аспект.*

Abstract: *This article describes the content of the concept of public safety and its scientific views. Also, the scientific research conducted in this regard and the views of scientists and their scientific analysis of opinions and comments are given.*

Keywords: *security, national security, public security, public order, legal structure, content, scientific aspect.*

Bugungi tahlikali davr barcha fuqarolardan ogoh bo'lishni, O'zbekiston Respublikasi xavfsizligini ta'minlash nuqtaiy nazaridan atrofimizda bo'layotgan voqealarga befarqlik qilmaslikni talab etadi.

Zero, Prezidentimiz "Xalqimizning xavfsizligi, tinchligi va osoyishtaligini saqlash eng ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi" [1] deb ta'kidlab o'tganlar.

Xavfsizlik juda keng tushuncha bo'lib, uning negizida, "Milliy xavfsizlik", "Harbiy xavfsizlik" "Axborot xavfsizlik" va "Jamoat xavfsizlik" masalalari yotadi. Bundan tashqari yurtimizda amalga oshirilayotgan xavfsizligimizni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan zamonaviy yondashuvni shakllantirish jarayonida, shubhasiz, jamoat xavfsizligini tartibga solish, yuzaga kelayotgan yangi chaqiriqlar, tahdidlar, xavfhatarlar sharoitida qayta ko'rib chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda jamoat xavfsizligiga doir qonunchilik bir qator qonun hujjatlari ishlab chiqildi. Ushbu qonun xujjatlarini boshi bo'lib O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xisoblanib, ushbu konstitutsiyani 38-moddasida [2] "fuqarolarning ijtimoiy faolliklari miting,

yig'ilish va namoyishlar shakllarida amalga oshirilishi huquqi e'tirof etilib, qonuniy jihatdan mustahkamlangan" deb yozib qo'yilgan.

Shu sababli jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmoni [3], "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi [4], "O'zbekiston Respublikasi davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi [5], "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi [6], "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi qonunlari [7] misol bo'la oladi.

Avvalo jamoat havfsizligi tushunchasi o'zbek tilining izohli lug'atiga muvofiq: "jamoat- arabcha so'z bo'lib, birlashma, uyushma, guruh, ko'pchilikka, ya'ni ommaga tegishli"[8], "havfsizlik - bu havf-xatarning yo'qligi, havf bo'lmagan holat"; "ta'minlash - o'zagi arabcha "ta'min" so'zidan olingan bo'lib, ta'min qilmoq, biror narsaning amalga oshishi, ro'yobga chiqishi, muhayyo bo'lishi uchun zarur sharoit yaratmoq" [9] ma'nolarini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Jamoat havfsizligi konsepsiyasiga muvofiq:

Jamoat havfsizligi - jamiyatning qonunga hilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan (keyingi o'rinlarda - tahdidlar) himoyalanganlik holati bo'lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga hizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi;

Jamoat havfsizligini ta'minlash - davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy choratadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim[10].

Jamoat xavfsizligini ta'minlashni ilmiy qarashlari kuppina ilm olami vakillarini nazarida bo'lib kelgan. Ular jamoat tartibi va xavfsizligi bo'yicha o'z qarashlarini va ilmiy jihatdan yondashuvlarini bildirib o'tganlar.

Huquqiy tuzilma "jamoat tartibi" - bu, tasodiffiy, barcha ijtimoiy fanlar va huquqiy normalar tomonidan qo'llaniladigan ijtimoiy-huquqiy toifalardan biri hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, T.Gobbs fuqarolik dunyosining eng katta ijtimoiy ne'mat deb hisoblab, uni aslida jamoat tartibi[11] deb tushungan. Davlat o'zining huquqi ximoya qilish funksiyasini amalga oshirar ekan, barcha hududlarda aholining tinch hayotini tashkil etadi, shu bilan birga, birinchi navbatda jamoat ahamiyatiga ega bo'lgan joylarda: ko'chalarda, hiyobonlarda, istirohat bog'larida, maydonlarda, vokzallarda, savdo markazlarida, bozorlarda va boshya jamoat joylarida qonun va tartibni o'rnatilishini ta'minlaydi.

"Tartib", "xavfsizlik", "jamoat tartibi" va "jamoat xavfsizligi" tushunchalarining ahamiyati shundan iboratki, ular huquqni muhofaza qiluvchi bo'lib, o'z ma'zmun-mohiyatiga ko'ra birgalikda aholi bilan birga mamlakatning muhim belgilaridan biri

hokimiyat va hududni tashkil qiladi. Amaliy nuqtai nazardan, jamiyatda tartib va xavfsizlikning yo'qligi davlatning tarkibiy inqirozidan dalolat beradi[12].

Jumladan, A. V.Zabnenkov, M. V.Maslovskaya “...jamoat tartibining sifatsizligi va past darajada saqlanishi fuqarolar va umuman jamiyatning qonun ustuvorligi muhofazasining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi”[13] – deb ta'kidlagan bo'lsa, s.f.b.f.d (PhD) R.R.Rashidov “...alohida bir shaxsning yoki jamiyatdagi muayyan ijtimoiy qatlamning muammolari, manfaatlari yuqori darajaga ko'tarilib bevosita davlat ahamiyatiga ega muammoga aylanadi hamda davlat manfaatlariga ta'sir qiladi”[14] – degan fikrni ilgari suradi.

Jamoat xavfsizligi bo'yicha ko'pgina qo'llanma va adabiyotlarda jamoat xavfsizligi tushunchasi bo'yicha turlicha fikrlar-muloxazalar bildirilgan bo'lib, jamoat xavfsizligini tushunib yetish uchun yagona qarash ishlab chiqilmaganligi hamda jamoat xavfsizligining aniq ma'zmun-moxiyatiga ega emasligi mavjuddir.

Ayrim ushbu sohaga tegishli adabiyotlarda jamoat xavfsizligi asosan milliy xavfsizlikning bir turi sifatida ta'riflanadi [15]. Masalan A.I.Sapojnikovning fikricha, jamoat xavfsizligini ta'minlash jamoat xavfsizligini tartibga solish uchun ijtimoiy ob'ektiv va huquqiy vositalar sifatida litsenziyalash, nazorat qilish va majburiy usullardan foydalanadigan davlat organlarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun maxsus ma'muriy-huquqiy rejim zarur [16].

A.A.Karmoliskiy esa, jamoat xavfsizligini ma'muriy-huquqiy tartibga solish ob'ekti sifatida “fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va mulkiga tahdidlarning oldini olish va bartaraf etish jarayonida rivojlanadigan munosabatlar tizimi” [17] sifatida ko'rsatadi.

P.G.Gorodeskiy – “davlat va munitsipal organlarning, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, tashkilotlarning normal ishlashini, fuqarolik jamiyati, alohida fuqarolar va ularning birlashmalarini shakllantirishni ta'minlaydigan jamiyat hayotining qonun bilan belgilangan rejimi” sifatida ta'riflaydi [18]. Yuqoridagi qarashlar bilan jamoat xavfsizligini keng talqin qilish xavfi mavjudligi, sababi “jamoat” atamasi o'z mazmuniga ko'ra ijtimoiy-siyosiy sodir bo'ladigan voqealarni butun majmuasini qamrab oladi. Bu tushuncha etimologiya nuqtai nazaridan to'g'riligi, ammo hozirgi davrda davlat xavfsizligini milliy xavfsizlik bilan birxillashtirish mavjudligini inobatga olish muximdir.

Jamoat xavfsizligi sohasiga oid tushunchalar, xavf manbalari salbiy xususiyatlarining namoyon bo'lishidan himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni o'z ichiga oladi, lekin shunga qaramasdan boshqacha yondashuvlar ham, nisbatan qamrovi jihatidan to'liqroq tushunchalar mavjud.

M.X.Rustambaev jamoat xavfsizligini “jamiyat hayotining xavfsiz sharoitlaridir, ya'ni fuqarolarning daxlsizligi, hayoti va sog'lig'ini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlarini, har qanday davlat va jamoat tuzilmalarining normal faoliyati va hokazolarni ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir” [19] deb ta'riflaydi.

L.L.Popov bo'lsa jamoat xavfsizligini “jamoat munosabatlarida huquqiy, texnik, qurilish va boshqa meyo'rlarga muvofiq sharoitlarda yuzaga keladigan, odamlar va

umuman jamiyat uchun yuqori xavf tug'diradigan yoki texnogen va ijtimoiy xususiyatga ega favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda yuzaga keladigan munosabatlar tizimi sifatida" [20] tushuntiradi.

Ammo bu jamoat xavfsizligining o'zi emas, balki uni ta'minlash, ya'ni turli sub'ektlarning faoliyatidir.

V.V.Denisenkoning ta'kidlashicha, ma'muriy-huquqiy sohadagi jamoat xavfsizligi –bu muassasalar, korxonalar, tashkilotlarning normal faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida maxsus texnik va huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi, odamlarning hayoti va sog'lig'iga tahdidlarning oldini olish va bartaraf etishdir [21].

Yuqoridagi qarashlarni inobatga olmagan holda shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunga qadar jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha asosiy konseptual yagona yondashuvi mavjud emasligi, xususan, mamlakatimiz qonunchiligida "jamoat xavfsizligi", "jamoat xavfsizligi turlari" va shu kabi kategoriyalarning mazmunini ochib berishda aniq bir to'xtamga kelinmaganligidir.

Shuningdek, jamiyat uchun xavf tug'diradigan bunday keng doiradagi harakatlarni, harakatsizlikni hamda rivojlanish jarayonlarni jamoat xavfsizligiga tahdid bo'lishiga yordam beradigan turli xil shart-sharoitlarni to'liq qamrab ololmaydi. Ushbu tahdidlarni aniqlashtirish uchun ularni tasniflash kerak, bu ayniqsa kelib chiqishi mumkin bo'lgan har hil javoat xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish va ularning oqibatlarini kamaytirish uchun zarurdir.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, "jamoat xavfsizligi" tushunchasiga to'liq aniqlik kiritish, mazmun mohiyatini batafsil yoritish hamda unga tahdid, xavf soluvchi elementlarni shakllantirish, jamoat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash –fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini, davlatning boshqa qonuniy manfaatlarini qonun buzilishi harakatlaridan, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har hil texnogen va tabiat hodisalaridan sifatli himoya qilish maqsadida, "Jamoat xavfsizligi ta'minlash to'g'risidagi", "Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o'tkazish tartibi to'g'risida"gi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish vaqti keldi. ishlab chiqilgan qonunlarni xalq muxokamasiga qo'yish esa hozirgi demokratik jamiyatimizdagi fuqarolarni o'z talab va takliflarini bildirishi, shulardan kelib chiqqan holda yuqoridagi qonunlarni kamchiliklarini bartaraf etish va ularni yanada sifatli ishlab chiqish imkoniyati mavjudligidan aytib o'tish joizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2022 yil 13 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Havfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida so'zlagan nutqi. Gazeta.uz saytidan olingan.(murojaat qilingan sana 2024 yil 06 fevral).

2 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023 yil.

3. <https://www.lex.uz/ru/docs/5749291>. “O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2021 yil 29 noyabrdagi PF-27-son farmoni. (Murojat qilingan sana 2024 yil 26 yanvar);

4. <https://lex.uz/docs/5128310>. “O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida”gi 2020 yil 18 noyabr kungi O'RQ-647-son qonun. (Murojat qilingan sana 2024 yil 26 yanvar);

5. <https://lex.uz/docs/3610935>. “O'zbekiston Respublikasi davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida”gi 2018 yil 5 aprel kungi O'RQ-471-son qonuni. (Murojat qilingan sana 2024 yil 26 yanvar);

6. <https://lex.uz/docs/1521661>. “Yong'in xavfsizligi to'g'risida”gi 2009 yil 30 sentabr kungi O'RQ-226-son qonuni. (Murojat qilingan sana 2024 yil 26 yanvar);

7. <https://lex.uz/docs/24741>. “Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida”gi 1999 yil 19 avgust kungi 818-I-son qonuni. (Murojat qilingan sana 2024 yil 26 yanvar);

8. O'zbek tilining izoxli lug'ati. 80000 ga yaqin so'z va so'z birikmasi. ma'sul muharrir A. Madvaliyev. – T.: «O'zbekiston nashriyoti» davlat unitary korxonasi. (murojaat qilingan sana 2023 yil 23 oktabr);

9. O'zbek tilining izoxli lug'ati.: 80000 ga yaqin so'z va so'z birikmasi ma'sul muharrir A. Madvaliyev. - T.: «O'zbekiston nashriyoti» davlat unitary korxonasi. (murojaat qilingan sana 2023 yil 23 oktabr);

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabr kunidagi “O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi kontsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” gi PF-27-son farmoni [Elektron manba] // URL: <https://lex.uz/pdfs/5749291> (murojaat qilingan sana 2023 yil 14 oktabr).

11. Гоббс Т. Соч. 2. М., 1991. С. 96–97.

12. Белский К.С. Полицейское право: Лекс. курс / Под ред. А.В. Куракина. М.: Дело и сервис, 2004. С. 23.

13. Zabnenkov A. V., Maslovskaya M. V. OXRANA OBЩESTVENNOGO PORYADKA KAK VOPROS MESTNOGO ZNACHENIYA.

14. Rashidov R.R. Jamoat xavfsizligiga doir nazariy qarashlar va yondashuvlar tahlili // O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jamoat xavfsizligi ilmiy-amaliy jurnali. №3 – Toshkent: 2021. 46 –var.

15. Кардашова И.Б. МВД России в системе обеспечения национальной безопасности Российской Федерации: Дисс ... докт. юрид. наук. М.: ВНИИ МВД России, 2006; Редкоус В.М. Административно-правовое обеспечение национальной безопасности в государствах-участниках Содружества Независимых Государств: Дисс.... докт. юрид.наук. 12.00.14. М.: РУДН, 2011. 431 с.; Дугенец А.С. Рецензия на диссертацию В.М. Редкоуса «Административно-правовое обеспечение национальной безопасности в государствах – участниках

Содружества Независимых Государств» // Административное право и процесс. 2012. № 6. С. 70-73.

16. Сапожников А.И. Административно-правовой режим общественной безопасности: Дисс. канд. юрид. наук. М., 2006 г

17.Алехин А.П., Кармолицкий А.А. Административное право России. Часть первая. М.: Зерцало. 2011. С. 459.

18. Городецкий П.Г. Проблемы деятельности федеральной системы правоохранительных органов России: Автореф. дисс. ... докт. юрид. наук. 12.00.11. М., 2001. 42 с.

19. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism 3-tom. 324 v. 11. Административное право: Учебник / под ред. Л.Л. Попова, М.С. Студеникиной. М.: Норма. 2010. С. 689.

20. Денисенко В.В. Определение и содержание понятия "оперативная обстановка" // Административное право и процесс. 2006. № 2.

21. <https://lex.uz/docs/5563039>. “Transport to‘g‘risida”gi 2021 yil 9 avgust kungi O‘RQ-706-son qonuni.